



O'ZBEKISTONGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSİYALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Salohiddinov Jaloliddin

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0005-3906-919X

jalol10jalol@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari tahlil etildi. Investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) tarkibidagi o'rni, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya loyihalarini samarali boshqarish va investitsiyalardan olinadigan iqtisodiy natijalarni optimallashtirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, moliyaviy texnologiya, iqtisodiyot, korxonalar, investor, yalpi ichki mahsulot, soliq, bojxona, xorijiy investitsiyalar, pul-kredit siyosati, samaradorlik, iqtisodiy barqarorlik.

ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В УЗБЕКИСТАН

Салоҳиддинов Джалолиддин

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье проанализированы вопросы повышения эффективности инвестиций, направляемых в Узбекистан. Рассматриваются роль инвестиций в структуре валового внутреннего продукта (ВВП) страны, их влияние на экономический рост и значение для диверсификации экономики. Также предложены перспективные направления по улучшению инвестиционного климата, эффективному управлению инвестиционными проектами и оптимизации экономических результатов от инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, финансовые технологии, экономика, предприятия, инвестор, валовой внутренний продукт, налоги, таможня, иностранные инвестиции, денежно-кредитная политика, эффективность, экономическая стабильность.

PROSPECTS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENTS IN UZBEKISTAN

Salohiddinov Jaloliddin

The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the issues related to increasing the efficiency of investments directed to Uzbekistan. The role of investments in the structure of the country's gross domestic product (GDP), their impact on economic growth, and their importance in economic diversification are examined. In addition, promising directions are proposed for improving the investment climate, effectively managing investment projects, and optimizing the economic outcomes derived from investments.

Keywords: investment, financial technology, economy, enterprises, investor, gross domestic product, taxation, customs, foreign investments, monetary policy, efficiency, economic stability.

Kirish.

Bilamizki hozirgi iqtisodiyotimizni har tomonlama qullab quvvatlash va jahon tajribasidan samarali foydalanishni taqazo etadi, Investitsiyalar orqali mablag' jalb qilishni takomillashtirish bugungi kunda har bir mamlakat o'z oldiga quygan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi va bu o'z o'zidan yangi izlanishlar va tadqiqotlarga yo'l ochadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Ushbu rivojlanishning muhim omillaridan biri - investitsiya faoliyatining jadallashuvi va xorijiy investitsiyalarning jalb etilishidir. Investitsiyalar nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki mamlakatning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. So'nggi yillarda ushbu ko'rsatkichning o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu, bir tomondan, mamlakatda yaratilgan qulay investitsion muhit, ikkinchi tomondan, xorijiy investorlarning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishining ortishi bilan izohlanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2020-yilda 25% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 30% ga yaqinlashdi (Yig'ilish, 2024). Ushbu o'sish dinamikasi mamlakat iqtisodiyotining investitsiyalar hisobiga rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushini yanada oshirish zaruriyati mavjud. Bu, ayniqsa, mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhimdir. Investitsiyalarning yetarli emasligi iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi, yangi ish o'rinlari yaratishga to'sqinlik qilishi va aholi turmush darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalarning hajmini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda samarali o'zgarishlar amalga oshirish talab qilinadi:

- Birinchidan Investitsion muhitni yanada yaxshilash. Bu, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, investorlarga qulay sharoitlar yaratish, qonunchilik bazasini takomillashtirish va investitsion risklarni kamaytirishni nazarda tutadi.

- Ikkinchidan Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kuchaytirish. Bu, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda marketing tadbirlarini o'tkazish va investorlar bilan faol muloqot qilishni talab etadi.

- Uchunchidan Ichki investitsiyalarni rag'batlantirish. Bu, mahalliy tadbirkorlarga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, ularning investitsion faolligini oshirish va ichki resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashni anglatadi.

- Turtinchidan Investitsiya yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish. Bu, investitsiyalarni faqatgina an'anaviy tarmoqlarga emas, balki innovatsion va istiqbolli yo'nalishlarga ham jalb qilishni nazarda tutadi.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish. Bu, investitsiya loyihalarini sifatli ishlab chiqish, ularning monitoringini olib borish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashni talab etadi.

Adabiyotlar sharhi.

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadik nafaqat bizda balki boshqa mamlakatlardaham Investitsiyalarni YaIM va Iqtisodiyot samaradorlikdagi o'rni qanchalik darajada muhim ahamiyat kasb etishi o'rganilgan va tadqiqotlar davom etmoqda.

Shu jumladan Pokistoning Lahore universiteti professorlari Abbas, Akbar, Nasir, AmanUllah, Naseem (2011), Akpolat (2014), Kim, Kang, Sanders, ushbu tadqiqotchilar o'z ilmiy tadqiqotlarida investitsiyalarini korxonalar faoliyatini barqarotrlashtirish, YaIM dinamikasiga investitsiyalarning tasirini o'rganish, mamlakat miqyosida huquqiy bazani shakillantirish, malakali kadrlarni tayyorlash, logistika sohasini rivojlantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish,

investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish kabi taklif va xulosalar bergan.

Abbas 2011-yilda investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tahlilini olib borib mintaqa darajasida o'rgangan Pokiston, Hindiston, Nepal, Bangladesh, va yana bir nechta mamlakatlar doirasida tahlil qilib Investitsiyalar qaysi mamlakatga qanday tasir qilgani va samaradorlik ko'rsatkichlarini ochib bergan

Umman olganda asosiy ko'rsatkichlarga qaraydigan bo'lsak bugungi kunda dunyoda eng ko'p Investitsiya kiritilgan mamlakat Xitoy xalq respublikasi hisoblanadi ya bu ko'rsatkich yildan yilga o'sib bormoqda va bu o'z o'zidan mamlakatimiz darajasida o'rganilishiga sabab bo'ladi.

Tahlil natijasi va muhokamasi.

Ushbu tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish bizga Investitsiyalarning Iqtisodiyotga tasiri va korxonalarni investitsiyalar orqali moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi. Bular Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar tahlili va korxonalarni moliyaviy barqarorligini taminlash borasidagi ishlanmalar qilinishi lozim. Shuni takidlash lozimki avvalo Yillar davomida investitsiyalarning YAIMdagi ulushi sezilarli o'zgarishlarga uchragan.

1-jadval

Investitsiyalarning YaIM ulushi

Yil	YAIM (milliard AQSh dollari)	Investitsiyalarning YAIMdagi ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)
2010	49.8	—	—
2011	60.2	18.9	20.88
2012	67.5	19.2	12.13
2013	73.2	19.9	8.44
2014	80.8	20.2	10.38
2015	85.7	20.2	6.06
2016	85.7	20.1	0.00
2017	69.7	22.7	-18.67
2018	58.7	29.1	-15.78
2019	67.3	36.8	14.65
2020	66.4	34.7	-1.34
2021	77.3	32.4	16.42
2022	90.1	29.7	16.56
2023	101.6	33.4	12.76
2024	112.7	33.1	10.93
2025 (prognoz)	127.2 (prognoz)	32.5	12.87

Manba: Stat.uz manbalariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

1-jadvalga asosan 2010-yildan 2016-yilgacha ushbu ko'rsatkich 18.9% - 20.9% oralig'ida bo'lib, nisbatan barqaror saqlangan. 2017-yildan boshlab esa investitsiyalar hajmi sezilarli o'sishni boshlagan va 2019-yilda eng yuqori nuqtaga – **36.8%** gacha yetgan. 2010-2016 yillarda investitsiyalar YAIMning **19-22%** atrofida bo'lib, barqaror kechgan. 2017-2019 yillarda **keskin o'sish** kuzatilgan, ayniqsa 2018-2019 yillarda bu ulush **29.1%** dan **36.8%** gacha oshgan. 2020-2022 yillarda **pasayish** qayd etilgan, bunda 2022-yilda YAIMdagi ulush **29.7%** gacha tushgan. 2023-yilda esa investitsiyalar ulushi **33.4%** gacha oshgan, bu esa iqtisodiyotning tiklanish jarayoni boshlanganidan dalolat beradi. 2024-yilda deyarli o'zgarishsiz qolmoqda 33.1 2025-yilda esa ushbu ko'rsatkich 32.5% ga kamayishi prognoz qilinmoqda. Buning sababi sifatida so'nggi yillarda investitsiyalar o'sish sur'atining pasayishi

ko'rsatilishi mumkin. 2025-yilda investitsiyalarni rag'batlantirish va barqaror o'sish sur'atini ta'minlash uchun qo'shimcha iqtisodiy chora-tadbirlar talab etiladi. Demak, biz bazi jihatlarni ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ladi. 2019-yilda eng yuqori usish suratiga erishildi va qolgan yillarda stabillik va pasayish ko'zatildi, Buning bir nechta sabablari bor keng ko'lamli islohotlar va investitsion muhitni yaxshilash 2017-2019 yillarda O'zbekiston hukumati chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirdi.


1. Investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha Agentlik va yangi qonunchilik mexanizmlari ishlab chiqildi.

2. Yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi 2019-yilda energetika, transport, qurilish va sanoat yo'nalishlarida yirik loyihalar boshlangan. Gaz va elektr energiyasi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi avtomobil va temir yo'l loyihalari investitsiyalar hajmini oshirdi. Turizm va qishloq xo'jaligi sohalarida ham davlat-xususiy sheriklik asosida yirik loyihalar amalga oshirildi.

3. Xorijiy investitsiyalar oqimining keskin oshishi 2019-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya va Yevropa davlatlaridan kelayotgan sarmoyalar o'sdi. Yangi xalqaro kredit liniyalari va davlat obligatsiyalarining chiqarilishi qo'shimcha investitsiyalar jalb qilish imkonini berdi.

4. Pul-kredit siyosati va iqtisodiy liberallashtirish Markaziy bank valyuta bozorini erkinlashtirdi, bu esa investorlar uchun qulay sharoit yaratdi. 2019-yilga kelib so'mning kursi erkin belgilanishi natijasida xorijiy investitsiyalar uchun risk kamaydi. Davlat banklari va xususiy sektor tomonidan kreditlash hajmi oshirildi, bu esa korxonalar rivojlanishiga turtki berdi.

E'tibor qaratilishu lozim bo'lgan yana bir ko'rsatkich To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YAIMga nisbatan ulishini 1.2-grafika asosida ko'rib chiqish mumkin:



1-rasm. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (kun.uz, 2024)

1-rasmga qaraydigan bo'lsak 2018-2019 yillardagi o'sish omillari Iqtisodiy islohotlar – 2017-yildan boshlab iqtisodiyotning liberallasuvi va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yilda investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 36.8% ga yetdi. Yirik loyihalar – energetika, infratuzilma va sanoat sohalarida xorijiy investorlar ishtirokidagi loyihalar hajmi oshdi. Xorijiy investitsiyalar oqimi – chet eldan investitsiyalar jalb

qilish bo'yicha yangi siyosat natijasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 2019-yilda rekord darajaga yetdi. 2. 2020-2022 yillardagi pasayish sabablari Pandemiya ta'siri – 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli investitsiyalar 34.7% ga tushdi, bu esa iqtisodiy faollikning pasayishiga olib keldi. Global iqtisodiy inqiroz – pandemiya natijasida xalqaro bozorlardagi beqarorlik, logistika muammolari va ishlab chiqarish hajmining qisqarishi investitsion faollikka ta'sir ko'rsatdi. Ichki iqtisodiy muammolar – 2021-2022 yillarda iqtisodiy o'sish sekinlashgan, davlat byudjeti xarajatlarining oshishi va kreditlash siyosatining qayta ko'rib chiqilishi investitsiyalarning kamayishiga sabab bo'lgan. 3. 2023-2025 yillarga prognoz va istiqbollar 2023-yilda tiklanish – iqtisodiy tiklanish boshlangan bo'lib, investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 33.4% ga yetdi. 2024-2025 yillarga prognoz – mavjud dinamikaga ko'ra, 2024-yilda investitsiyalar 33.1%, 2025-yilda esa 32.5% atrofida bo'lishi kutilmoqda. Barqarorlikni ta'minlash uchun choralar – investitsiyalarni rag'batlantirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish, sanoat va infratuzilma rivojini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu o'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish istiqbollariga bag'ishlangan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Mamlakat iqtisodiyotidagi investitsiyalar joriy holati o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki bazi yillarda investitsialarni o'zlashtirishda muammolar yuzaga kelgan hududlar va mintaqalar kesimida o'rganishlarni amalga oshirish lozim. Real sektorga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni real sektorga oqimini rag'batlantirish lozim. Uzoq muddatli istiqbolda interregional klasterlashuv mexanizmlarini takomillashtirish orqali investitsiyalarning samaradorligini oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiy o'sishining barqarorligini oshirishga, ishlab chiqarish va eksport hajmlarini kengaytirishga hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Yig'ilish (2024) Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-dekabr kuni investitsiya bo'yicha 2024-yildagi natijalar sarhisobi va kelgusi yilgi vazifalar muhokamasi yuzasidan yig'ilishi <https://president.uz/oz/lists/view/7775>